

**RAQAMLI IQTISODIYOTNING ASOSIY XUSUSIYATLARI,
AFZALLIKLARI VA MUAMMOLARI****Umbarov Doston ¹**¹ *QarDu, Iqtisodiyot fakulteti dekan o'rinbosari***Oripova Madinabonu Mansur qizi ¹**¹ *QarDu, iqtisodiyot yo'nalishi
023-19-guruh 2-bosqich talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 05.12.2024**Revised: 06.12.2024**Accepted: 07.12.2024***KALIT SO'ZLAR:***Raqamli iqtisodiyot,
Raqamli platformalar,
Axborot texnologiyalari
infratuzulmasi,**bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va unga doir turli samarador tushunchalar va texnologiyalar kirib kelmoqda. Davlat va jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanish yo'lida Raqamli iqtisodiyotning ahamiyati ancha sezilarli o'rinni egallab turibdi. Bu jarajonni qullab-quvvatlagan holda davlatimiz rahbari tomonidan raqamli iqtisodiyotga doir qonun va farmoishlar qabul qilindi.*

KIRISH. So'ngi vaqtlarda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko'p marta qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiy ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot — bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot — bu o'ziga xos nazariya bo'lib, uning o'rganish obyekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy munosabatlar asosan raqamli ishlab chiqarish va raqamli xizmat ko'rsatish jarayonlarini tobora keng tarqalishiga olib kelmoqda. Qiymat yaratuvchilari o'rtasida tarmoq bo'yicha o'zaro munosabatlarni amalga oshirish innovatsion rivojlanish konseptsiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan. Innovatsion texnologiyalar asosida ma'limotlar almashishi, uning tarqalishiga asoslangan bo'lib, uning nazariy tavsifi ko'plab kompaniyalar o'rtasidagi munosabatlarni

amalgama oshirishga imkon beradigan tuzilma sifatida zamonaviy iqtisodchilarning asarlarida o'z aks topgan.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyotga doir mavzularni turli adabiyotlarda keltirilgan takliflari va tavsiflarini, o'rganilgan muammo va yechimlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "THE DIGITAL ECONOMY: PROMISE AND PERIL IN THE AGE OF NETWORKED INTELLIGENCE" (Don Tapscott) Ushbu asarda raqamli iqtisodiyotning asosiy tamoyillari va texnologiyalar rivojlanishining iqtisodiyotga ta'siri ko'rib chiqilgan. Muallif biznes modellarining o'zgarishi raqamli savdo va iste'molchilarning rolini keng qamrovli tahlil qiladi. "Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think" (Viktor Mayer-Schönberger va Kenneth Cukier) Ushbu kitob katta ma'lumotlarning iqtisodiy jarayonlarni qanday o'zgartirayotganini batafsil tushuntiradi. Bu ma'lumotlar tahlilining raqamli iqtisodiyot uchun muhimligini ko'rsatadi. Yurtimiz misolida yana ko'rishimiz mumkin xususan "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturi Bu hujjatda O'zbekiston hukumati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi, AKT infratuzilmasini kengaytirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha rejalarini bayon etadi. Undan tashqari "RAQAMLI IQTISODIYOT ASOSLARI" (R.H.Ayupov, G.R.Boltaboyeva) kitobida quyidagicha sharh berilgan: "Hozirgi raqamli inqilob va ko'pchilik sohalarning raqamli transformatsiyasi davrida insoniyat faoliyatining barcha sohalarida global miqyosda raqamli texnologiyalarning gurkirab rivojlanishi kuzatilmoqda. Bu borada albatta O'zbekiston Respublikasining qishloq ho'jaligi ham chetda qolayotgani yo'q albatta. Misol sifatida bu sohada qabul qilingan Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlarini va bu bilan bog'liq bo'lgan bir qancha chora-tadbirlarni ko'rsatishimiz mumkin." O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari xususan, "2020-2022-yillarda raqamli iqtisodiyotga o'tish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror milliy raqamli iqtisodiyotning rivoji uchun asosiy yo'nalishlarni belgilaydi. Yana bir adabiyotda "RAQAMLI IQTISODIYOTDA BLOKCHeyn TEXNOLOGIYUALARI" (S.S.Gulyamov) kitobida Shuni ham aytish kerakki, hozirgi paytda raqamli olam va jismoniy (yoki moddiy) olamlar kundan-kunga bir-biriga tezkorlik bilan yaqinlashib kelmokda. Bu ikki olamning jipslashuvi, oxir-oqibat, o'zaro bogliqlik tushunchasi katta ahamiyat kasb etuvchi idrokli o'lamga olib keladi. Global raqamlashtirish jarayoni esa jismoniy shaxslar, korxonalar va hukumatlarning barqaror o'sishi va ularga qulaylik yaratishni ta'minlagan holda tezligini oshirishda davom etmoqda. Bunday global raqamlashtirish sharoitida rivojlanishning sust bo'lishi Markaziy Osiyo mamlakatlarida regress holatini keltirib chiqarishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning ta’rifi va tavsifi

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga oid aniq bir tushunchalar mavjud emas, ayni bir sohada umumiy holda o’rganiladi va turlicha tavsiflarga ega. Raqamli iqtisodiyot— jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan va raqamli ko’rinishdagi ma’lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili deb sanalgan xo’jalik faoliyatidir [1].

Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy ho’jalik yuritish shakllriga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko’rsatishni, aqlli texnologiyalar yordamida maxsulot yetishtirishni va uni yetkasib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin. Raqamli iqtisodiyot asosan uchta elementga tayanadi: Axborot texnologiyalari infratuzulmasi, Raqamli platformalar, Ma’lumotlar va ularning tahlili. Axborot texnologiyalari onfratuzulmasi (ATI) Raqamli iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biri bo’lib, uning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Axborot texnologiyalari infratuzulmasi — Raqamli iqtisodiyotda internet, kompyuter tarmoqlari va mobil qurilmalari kabi vositalar orqali iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirish tushuniladi. O’zbekistonda “Raqamli O’zbekiston —2030” strategiyasi doirasida ATIning rivojlantirish uchun internet tezligini oshirish, ma’lumotlar markazlarini kengaytirish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo’yicha keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda. ATIning ahamiyati shundaki, u raqamli iqtisodiyotning barcha jarayonlari uchun asosiy platforma sifatida xizmat qiladi va iqtisodiy samaradorlik hamda barqaror o’sishni ta’minlaydi.

Raqamli platformalar — Raqamli iqtisodiyotda elektron savdo, onlayn xizmatlar va raqamli onlayn bozorlarni o’z ichiga oladi. Raqamli platformalar Raqamli iqtisodiyotning muhim elementlaridan biri bo’lib, ular iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatni muvofiqlashtirish uchun texnologik asos yaratadi. Ushbu platformalar iqtisodiy munosabatlarni samarali tashkil etish va axborotni almashish jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi. O’zbekistonda raqamli platformalar rivoji davlat xizmatlarini raqamlashtirishda muhim rol o’ynamoqda. My.gov.uz orqali fuqarolar masofadan davlat xizmatlaridan foydalanmoqda. Elektron tijoratda O’zbekistonda “Yandex Market” “Wildberries” “Uzum Market” kabi platformalar mashhurlikka ega bo’lib kichik va o’rta bizneslarni qo’llab-quvvatlaydi. Raqamli platformalar iqtisodiyotning har bir segmentida raqobatbardoshlikni oshiradi, yangi

imkoniyatlar yaratadi va iqtisodiy resurslarni samarali boshqarishga xizmat qiladi. Bu platformalarsiz raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi imkonsizdir.

Ma'lumotlar va ularning tahlili Raqamli iqtisodiyotda quyidagilarni o'z ichiga oladi: katta hajmdagi ma'lumotlar va su'niy intellekt yordamida qarorlar qabul qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish. Ma'lumotlar va ularning tahlili raqamli iqtisodiyotning markaziy komponentlaridan biri bo'lib, iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi imkoniyatlarni ochishda munim ahamiyatga ega. Ma'lumotlar va ularning tahlili raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu texnologiyalarni joriy qilish davlatlar va kompaniyalarni raqobatbardosh qiladi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari va muammolari

Raqamli iqtisodiyotda quyidagi afzalliklarni ko'rib chiqishimiz mumkin. Samaradorlikni oshirish ya'ni raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish, savdo, moliya, va xizmatlar sohasida jarayonlarni avtomatlashtirib, iqtisodiy resurslarni tejash orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Undan tashqari yana ko'rishimiz mumkinki, ish o'rinlarini yaratish bunda ko'rishimiz mumkinki AKT sohasida yangi bilimlarga talab oshib bormoqda va bundan ko'rishimiz mumkinki mamlakatimizda yuqori maoshli ish o'rinlari ortib bormoqda. Ayniqsa, bugungi kunda dasturchilar ma'lumot tahlilchilari va kiberxavfsizlik mutaxassislari uchun talab katta.

Raqamli iqtisodiyotning muammolari haqida aytib o'tish joizki, kiberxavfsizlik tahdidlari ya'ni firibgarlik, ma'lumotlarning o'g'irlanishi va boshqa kiber xavf-xatarlar raqamli iqtisodiyotning muhim muammolaridan biridir undan tashqari yana bir muhim muammoni aytish kerakki, raqamli savodxonlikni yetishmasligi, aholining ko'p qismi AKT bilan ishlash savodxonligi yetarli emas bu esa raqamli iqtisodiyotdan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Yana bir asosiy muammo raqamli iqtisodiyotda huquqiy me'yoriy cheklovlar mavjudligi ya'ni, raqamli iqtisodiyot faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning yetarli darajda rivojlanmagani yoki qoloqligi ko'pinch raqamli bizneslarni to'xtatib turadi.

Xulosa va takliflar. Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda global va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy drayveri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar, katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va xizmat ko'rsatish sohasini tubdan o'zgartirish imkonini bermoqda. Bu nafaqat davlat va biznes uchun, balki fuqarolar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivoji

uchun «Raqamli O'zbekiston- 2030» dasturi muhim asos bo'lib, texnologiyalarni joriy qilish va iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupov R.X., Asraev U.M. Kraudsorsing va kraudfondingning raqamli iqtisodiyot uchun yaratadigan imkoniyatlari. Iqtisodiyotning tarmoqlarini innovatsion rivojlanishida AKT ning ahamiyati, Respublika ilmiy-texnik anjumanining ma'ruzalar to'plami, 3-qism, 2019 yil. 14-15 mart.
2. Ayupov R.X., Urunov R.S. O'zbekistonda raqamli iqtisod va 4.0 Industriyaning rivojlanish tendentsiyalari. Iqtisodiyotning tarmoqlarini innovatsion rivojlanishida AKT ning ahamiyati, Respublika ilmiy-texnik anjumanining ma'ruzalar to'plami, 3-qism, 2019 yil. 14-15 mart.
3. Ayupov R.X., Qurbonov Z.M. Raqamli iqtisodiyotning davlat boshqaruvida yuzaga keladigan ijobiy va salbiy tomonlari. "Davlat boshqaruvida raqamlashtirish: muammo va yechimlar" mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2019 yil 12 aprel.
4. Ayupov R.X., Jumaniyazova M.Yu. Цифровая трансформация в сельском хозяйстве Республики Узбекистан. Россия, Москва: «Международный журнал гуманитарных и естественных наук», №5-4 (сентябрь), 2019,
5. Ayupov R.X., Kalanova A.V. O'zbekiston respublikasida aqlli agrotexnologiyalarning rivojlanish istiqbollari. Raqamli texnologizalar mavzusi bo'yicha halqaro elektron konferentsiya, Respublika Serbiya, Belgrad shaxri, 2019 yil 10 iyun.
6. Ayupov R.X. Raqamli iqtisodiyot: muammolar va yechimlar. "Halqaromoliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 2-son, Aprel, 2018. Interfinance.uz – saytida.
7. Ostanaqulov M. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. - T: Talqin. 2008.
8. "RAQAMLI IQTISODIYOT ASOSLARI" (Darslik) G'.M. PORSAEV, B.SH. SAFAROV, D.Q. USMANOVA. Toshkent-2020.